



**XITOIY TILIDAGI XIGUANYONGYU (习惯用语) BIRLIKLARINING IKKI
BOSQICHLI SEMANTIK MODEL**

Badalbayer Dilshod Farxod o'g'li

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, «Xitoy filologiyasi»
kafedrasi tayanch doktoranti*

Xitoy tilidagi turg'un birikmalar, xususan xiguanyongyu (习惯用语) birliklarining semantik tabiatini o'rganish zamonaviy xitoy tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu birliklarning ma'no tuzilishini yoritishda ularning ikki qatlamli semantik tabiatini — yuzaki (bevosita, kompozitsion) ma'no va haqiqiy (idiomatik, ko'chma) ma'noni — farqlash alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xitoy tilshunosi 孙维张 Sūn Wéizhāng o'zining 《汉语熟语学》 asarida bu ikki qatlamni izohlash uchun “语表意义” (yǔbiǎo yìyì — yuzaki ma'no) va “语位意义” (yǔwèi yìyì — haqiqiy ma'no) tushunchalarini ilgari suradi. “语表意义” chéngyǔ yoki guànyòngyǔning tashqi, komponentlar orqali bevosita ifodalangan ma'nosini anglatib, bu darajada ma'no qismlarning oddiy yig'indisiga yaqin bo'ladi. “语位意义” esa birlikning til tizimida shakllangan, nutq amaliyoti orqali mustahkamlangan haqiqiy semantik mazmunini bildiradi — bu ma'no ko'pincha komponentlar yig'indisidan farq qiladi va majoziy, idiomatik xarakter kasb etadi. 温端政 Wēn Duānzhèng ham mos keluvchi “表面意义/字面意义” va “实际意义” tushunchalarini qo'llaydi, bu ikki xil terminologik yondashuvning bir xil kognitiv haqiqatga ishora qilishini ko'rsatadi.

Amaliy tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu ikki qatlamlilik zamonaviy xitoy og'zaki nutqida faol amal qiladi. Masalan, 猫鼠同眠 (māo shǔ tóng mián) birikmasining yuzaki ma'nosi “mushuk va sichqon birga uxlaydi” bo'lsa, uning haqiqiy ma'nosi — “huquqni muhofaza qiluvchilarning jinoyatchilar bilan til biriktirishi”dir. Xuddi shunday, 你看你 (nǐ kàn nǐ) birikmasi yuzaki darajada oddiy ko'rsatish harakatini ifodalasa (“o'zingga qara”), haqiqiy nutqiy vaziyatda esa tanbeh berish funksiyasini bajaradi (“Qarang-a, yana jahling chiqdi”).

Ushbu farqlanishning shunchaki nazariy konstruksiya emasligini psixolingvistik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. 张积家 Zhang Jijia va 石艳彩 Shi Yancai o'tkazgan eksperimental tadqiqot guanyongyularning til tashuvchisi ongida “aralash” (gibrid) reprezentatsiyaga ega ekanligini — ya'ni ular ongda ham yaxlit birlik, ham alohida komponentlar sifatida saqlanishini — ko'rsatdi. 谭宏 Tan Hong esa ko'chma ma'noni tushunishga ta'sir etuvchi to'rt omilni aniqladi: tanishlik (熟悉性), shaffoflik (透明性), bashoratlilik (预测性) va semantik parchalanuvchanlik (语义分解性).

Shunday qilib, xiguanyongyularning semantik tuzilishi ikki bosqichli — yuzaki ma'nodan haqiqiy ma'noga o'tish — model asosida izohlanishi mumkin. Bu model nafaqat xitoy tilshunosligi nazariyalariga, balki psixolingvistik dalillarga ham tayanadi va G'arb semantik



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



nazariyasidagi (Leech) ma'no tasniflari bilan tipologik uyg'unlik kasb etadi. Ushbu natijalar xitoy tilini chet tili sifatida o'qitishda, shuningdek audiovizual tarjima amaliyotida turg'un birikmalarning to'g'ri talqin qilinishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 孙维张 (Sun Weizhang). 汉语熟语学. – 长春: 吉林教育出版社, 1989. – 120–123 页
2. 温端政 (Wen Duanzheng). 汉语语汇学教程. – 北京: 商务印书馆, 2006. – 213–214 页.
3. 张积家, 石艳彩. 惯用语理解的心理机制 // 心理学报, 2004. – №3.
4. 谭宏. 惯用语理解的影响因素研究 // 语言教学与研究, 2008. – №2.
5. Leech, G. Semantics: The Study of Meaning. – London: Penguin Books, 1981. – 383 p.